

BO'LAJAK TARBIYACHILARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI
SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Bolqiboyeva Dilnoza

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bugungi kunda jamiyatda amalga oshirilayotgan islohatlar talablariga to'la javob beruvchi, ishlab chiqarish sohasida yuzaga kelgan raqobatga bardoshli, keskin o'zgarishlarga moslasha oluvchi, shuningdek, mehnat bozorida mutaxassislar malakasiga qo'yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurituvchi pedagok shaxsni shakllantirishning nazariy asoslari yoritilgan. Maktabgacha ta'lif muassasalarda tarbiyachining kasbiy mahoratiga etibor berilgan.*

Kalit so'zlar: kompetentlik, umumiy, maxsus, ekstremal, metodik, ijtimoiy, shaxsiy, kasbiy kompetentlik,

Kompetenlik – kasbiy mahorat belgisi sifatida pedagogdan talab qilinayotgan xususiyatdir. “Kompetentlik” so'zining ma'nosi xabardorlik, obro', o'z sohasi bo'yicha keng qamrovli tushuncha va tajribaga ega bo'lish bilan belgilanadi. Kompetentsiya-shaxsiy sifat bo'lib, turli xil vaziyatda pedagogik faoliyat va ijtimoiy hayotda ifodalanadigan qobiliyat, bilim, ko'nikma va malaka hisoblanadi. “Kompetentsiya” va “kompetentlik” atamalari o'zakdosh so'zlar bo'lib, ular g'arb ilmiy adabiyotida XX asrning 60 yillari oxiri, 70 yillarda paydo bo'ldi. “Kompetentsiya” atamasi milliy pedagogikada XX asrning 90 yillaridan e'tiboran ishlatila boshlandi.

Maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachisida kasbiy kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishda kasbiy kompetenlik sifatlarini pedagog shaxsiy xislatlari bilan muvofiqlashuviga e'tibor qaratish lozim. Pedagogning xulq-atvori va qiziqishlari uning kasbiy yuksalishida ta'sir ko'rsatadi. O'z kasbiga nisbatan mehr, doimiy izlanish va aniq maqsadlar orqali harakatlanish kasbiy kompetenlikni takomillashtiradi.

Tarbiyachining kasbiy kompetentligini ko'rsatuvchi sifatlar quyidagilar sanaladi:

- Pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo'lish;
- O'z ustida ishslash;
- Ta'lif jarayonini rejalashtirish, bolalar bilimini baholay bilish;
- Bolalarda motivatsiyani shakllantirish;
- AKTni bilish;
- Ta'lif faoliyatiga yangilik kiritish;
- Bolalar yosh xususiyatlari va individual ishslash yo'llarini mukammal bilish;
- Xorijiy tillar va zamonaviy sohalardan biri haqida xabardor bo'lish.

Kasbiy kompetentsiyani shakllanishi o'z-o'zini tahlil qilish, zarur narsalarni anglash, o'zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash, o'zini

namoyon etish vakamchiliklarini tuzatish bosqichlarini qamrab oladi. Tarbiyachilarda kasbiy kompetensiyanı rivojlanishini aniqlashda, kasbiy kompetensiya moduli yaratiladi. Ya'ni, bunda kasbiy kompetenlikni tashkil qiluvchi muhim komponentlarni aniqlashdan oldin, uning yaxlit manzarasi yaratiladi. Kasbiy bilim va tushunchalarni egallashdan avval kasbga nisbatan mehr va qiziquvchanlik aniqlashtiriladi. Qachonki, kasbiy faoliyat egasi o'z faoliyatiga mehnat deb emas, sevimli mashg'ulot sifatida qarasa unda ijodiy qobilyat rivojlanib boradi. Kasbiy kompetensiya moduli bu – qiziqish va ishtiyoq bilan kasbiy bilim va tushunchalarni egallash, bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash asosida kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish va faoliyatni qadriyat sifatida baholashga erishishdan iborat. Mazkur modul egasiga aylanish kasbiy faoliyatda duch kelinadigan turli holatlarda samarali yechimlardan avtomatik foydalanish ko'nikmasini vujudga keltiradi. Maktabgacha ta'lim bolani yangi hayot pog'onasiga tayyorlashdek muhim vazifani bajaradi. Bolaning ijtimoiy hayotga kirib borishining dastlabki bosqichi tabiiyki, oson kechmaydi. Chunki bola faqatgina ota-onadan iborat bo'lgan tor doiradan tashqariga chiqadi va

jamoaviy hayotga qo'shiladi. Bu jarayon turlicha individual xususiyatli bolalarga turli xil ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyachining vazifasi bolaning jismoniy va ruhiy xususiyatlaridan kelib chiqib, uni jamoaviy hayot tarziga ko'niktirish va jamoada erkin yashash malakasini shakllantirishdir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllanishi va rivojlanishida ularning nazariy va amaliy tajribalarga asoslangan bilimlarni chuqur egallab borishlari bilan bog'liq. Tarbiyachilarining kasbiy kompetentlik shkalasi bo'yicha o'zini rivojlantirib borishi asosida ularda kasbiy kompetensiyanı tarkib topib borishiga erishiladi. Doimiy ravishda kasbiy o'sishga erishish va kasbiy malakani oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olish, mustaqil ravishda kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, odatiy kasbiy-pedagogik vazifalarni to'g'ri hal qilish va o'z mehnatining natijalarini real baholash malakasiga egalik, mutaxassisligi bo'yicha yangi bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda izchil o'zlashtirib borish

qobiliyatiga egalik kabi bosqichlar asosida o'z imkoniyatlarini o'lchovdan o'tkazish vas shu asosida o'z oldiga yangi vazifa va maqsadlarni belgilab olish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asqarova O'M. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik / O'M. Asqarova, M. Xayitboyev, V.S. Nishonov; O'zR oliy va o'rtacha-maxsus ta'lim vazirligi. – T.: "Talqin", 2018. – 288 b.

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-2, ISSUE-16 (30-March)

2. Abdullaeva SH.X. Pedagog professional kompetentlilagini shakllantirishning ijtimoiypsixologik mexanizmlari: Psixol.f.d. (DSc) ... dis-ya avtoreferati: 19.00.05. – T.: O'zMU,
2019. – 61 b.
3. 4. Arziqulov D.N. Kasbiy kamolatning psixologik o'ziga xos xususiyatlari. Psixol. fan.nom. diss...avtoloyihai. – Toshkent: 2002. -22 b1. – 174 b.
5. X.SHaripov, N.Muslimov, M.Ismoilova: "Kasbiy ta'lim pedagogikasi". Metodik qo'llanma. – T. 2005 y.
Elektron ta'lim resurslari
[www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
[www. pedagog. uz](http://www.pedagog.uz)
[www. ziyonet. uz](http://www.ziyonet.uz)
4.[www. edu. Uz](http://www.edu.Uz)